IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

EKSPERT XULOSASINING DALIL MANBAI SIFATIDAGI TUZILISHI, MAZMUNI VA UNI BAHOLASH

Eshmuratov Sherali Baxitovich
Yakkasaroy tumani IIO FMB EKB katta eksperti

Annotatsiya

Ushbu maqolada sud ekspertiza xulosasining tuzilishi, mazmuni va uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o‘tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholash masalalariga bag‘ishlangan hamda ekspert xulosalarini baholashning aniq, yagona uslubiyoti ishlab chiqilmaganligi ta’kidlangan. Ekspert xulosasining mazmuni va tuzilishi, ya’ni sud eksperti xulosasining barcha tarkibiy qismlari (kirish, tadqiqot va xulosalar – yakunlovchi qism) amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq batafsil yoritilgan. Bir qator kriminalist olimlarning nazariy fikrlarining tahlillariga tayanib, ekspert xulosasini protsessual hujjat sifatida baholash nuqtai nazaridan ushbu hujjatni rasmiylashtirish uchun bir qator protsessual talablar inobatga olinishi kerakligi asoslangan hamda uning daliliy ma’lumot manbai sifatida baholash bilan bog‘liq bir qator qoidalarga e’tibor qaratish lozimligi asoslangan. Shuningdek, ekspert xulosasini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari ta’kidlangan, ekspert xulosasining tadqiqot qismining faktik va uslubiy tomonini tekshirishda tergovchi va sud bilishi zarur bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratilgan. Ekspert xulosasining qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan tuzilishi tergovchiga, dalil sifatidagi yakuniy hujjatda aks ettirilgan, ekspertiza tadqiqotlarining kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi) qismlarini ketma-ketlikda va tizimli ravishda tahlil qilish va baholashga imkon berishi asoslangan. Shu bilan birga, ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilishda amalga oshiriladigan tadbirlar tavsiya qilingan.

Kalitso‘zlar:

sud-ekspertlik faoliyati, sud eksperti, ekspertning xulosasi, ekspert xulosasining mazmuni, ekspert xulosasining kirish qismi, ekspert xulosasining tadqiqotqismi, ekspert xulosasining yakunlovchi qismi, qo‘shimcha ekspertiza, qayta ekspertiza, komissiyaviy ekspertiza, kompleks ekspertiza, ekspertiza tadqiqotlari, ekspert xulosasini dalil sifatida baholash, ekspert xulosasining maqbulligi, ekspertizani o‘tkazish vaqti, ekspertizani o‘tkazish joyi, ekspertiza o‘tkazish asoslari, ekspert imzosi bilan tasdiqlangan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, sud ekspertiga hal qilish uchun berilgan savollar, dastlabki materiallarining sifatliligi, tadqiqot usullari va uslublari.

Kirish.

Mamlakatimizda sud-ekspertlik faoliyatini jadal rivojlantirish, sohada fan va texnika yutuqlarining zamonaviy usullarini joriy etish borasida qator izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. So‘nggi uch yil ichida sud ekspertizasi sohasida 40 dan ortiq ilmiy-tadqiqot ishlari o‘tkazildi, 30 ga yaqin yangi ilmiy uslubiyotlar ishlab chiqildi, 8 ta yangi sud-ekspertlik turlari joriy etildi. Bugungi kunda 7 ta davlat sud ekspertiza muassasalari, shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan 55 turdagi sud-ekspertiza tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ushbu sohada ham ayrim muammolar uchrab turadi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son Farmoni bilan tasdiqlargan

“O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida, yaqin kelajakda sud-ekspertlik sohasida hal etilishi zarur bo‘lgan asosiy muammolardan biri sifatida “sud-ekspertlik faoliyatining tashkiliy hamda ilmiy-uslubiy jihatdan markazlashmaganligi muayyan bir ekspertiza turi bo‘yicha turli yondashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda” deb ko‘rsatildi [1].

Sud ekspertiza xulosasi muayyan huquqiy (protsessual-huquqiy) xususiyatga ega. D.Bazarova va I.R.Astanovlar “Ekspertiza xulosasi – ekspertiza tadqiqoti natijasida ekspertning fan, texnika, san’at, kasb-hunar sohalari bo‘yicha maxsus bilimidan foydalanib, surishtiruvchi, tergovchi, sud tomonidan yuborilgan ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror, ajrimda aks etgan savollariga bergan javobi aks etgan dalil manbai hisoblangan protsessual hujjatdir” [2, B.29] deb yozadilar.

Ko‘rinib turibdiki, bir tomondan, sud ekspertiza xulosasi ma’lum bir bilim sohasida ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs faoliyatining natijasi bo‘lgan sud dalillarini shakllantirish usuli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u sud eksperti tomonidan sud ekspertizasini bilish usullaridan biridir. Natijada, sud eksperti xulosalari qonun normalari bilan tartibga solinadigan protsessual harakat sifatida ishlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi 73-son qarori bilan tasdiqlangan “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Namunaviy nizomning 2-bandiga muvofiq **sud eksperti (sudekspertlari)ning xulosasi (xulosa)**— sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va tadqiqotlar olib borilishini va ularning natijalarini aks ettiradigan yozma yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron shakldagi hujjat [3].

Hozirda Respublikamizda sud ekspert xulosasi tuzilishi bo‘yicha yagona yondashuv mavjud bo‘lsa ham, ekspert xulosalarini baholashning ilmiy-uslubiy jihatdan markazlashmaganligi muammosi mavjud yoki aniq, yagona uslubiyot ishlab chiqilmagan.

Material va metodlar.

Sud protsessida ekspert xulosasi sudga oid dalilning bir turi va ushbu dalil bayon qilingan protsessual hujjat sifatida ikki tomonlama ahamiyatga ega.

Ekspert xulosasini protsessual hujjat sifatida baholash nuqtai nazaridan ushbu hujjatni rasmiylashtirish uchun bir qator protsessual talablar inobatga olinishi kerak. Ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi Qonuniga, amaldagi protsessual qonun hujjatlariga, shuningdek boshqa normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zining mazmuni va shakliga ko‘ra, ekspertning xulosasi o‘tkazilayotgan ekspertizaning protsessual maqomini (birlamchi, qo‘shimcha, takroriy, komissiyaviy, kompleks) aks ettiradi, tarkibiy jihatdan kirish, tadqiqot, tadqiqotlar natijalarini baholash (sintez) va xulosalar (yakuniy javoblar) qismlaridan iborat bo‘ladi hamda tadqiqotlarva uning natijalarini tasvirlovchi fotojadvallar, diagrammalar, chizmalar va shu kabi ilovalar shaklidagi ko‘rgazmali materiallar bilan birga taqdim qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 184-moddasiga muvofiq ekspert xulosasining mazmuni quyidagi qoidalarni o‘zichiga oladi:

1. Ekspert yoki ekspertlar komissiyasi ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazib bo‘lganidan keyin tegishincha ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tarkibiga kiruvchi har bir ekspert imzosi bilan tasdiqlanadigan xulosa tuzadi.

2. Xulosada quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

*E*kspertiza o‘tkazilgan sana va joy;

Ekspertizani o‘tkazish asosi;

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) to‘g‘risida ma’lumotlar;

ekspert (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma’lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va ekspertizani o‘tkazish topshirilgan tashkilot haqida ma’lumotlar;

Ekspertning bila turib noto‘g‘ri xulosa berganligi, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma’lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoxud prokurorning ruxsatisiz oshkor qilganligi, shuningdek xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo‘yintovlaganligi uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilganligi;

Ekspertning oldiga qo‘yilgan savollar; ekspertga taqdim etilgan tekshirish ob’ektlari va ish materiallari;

Ekspertiza o‘tkazilayotganda hozir bo‘lgan shaxslar haqida ma’lumotlar;

qo‘llanilgan usullar ko‘rsatilgan holda ekspert tekshiruvlarining mazmuni va natijalari, shuningdek bu ekspert tekshiruvlari, agar ekspertlar komissiyasi ishlagan bo‘lsa, kim tomonidan o‘tkazilganligi;

Ekspert tekshiruvi natijalarining baholanishi, qo‘yilgan savollarga berilgan asosli javoblar;

Ish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan va ekspertning tashabbusiga ko‘ra aniqlanga nholatlar.

3. Xulosada huquqbuzarlik sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, shuningdek ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-texnikaviy tavsiyalar ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

4. Xulosani (tadqiqotlar) va uning natijalarini tasvirlovchi fotojadvallar, diagrammalar, chizmalar va shu kabi materiallar ushbu xulosaga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Ekspert tekshiruvining olib borilishi, shart-sharoitlari va natijalarini hujjatlashtiradigan materiallar davlat sud-ekspertiza muassasasida yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilotda qonunchilikda belgilangan muddatlarda saqlanadi. Ular ekspertizani tayinlagan organning (shaxsning) talabiga binoan ishga qo‘shib qo‘yish uchun taqdim etiladi.

5. Agar taqdim etilgan tekshirish ob’ektlarining, materiallarning yoki ekspertning maxsus bilimlari yetarli emasligi ekspert tekshiruvi davomida ma’lum bo‘lib qolsa, xulosa ayrim qo‘yilgan savollarga javob berishni rad etish asosini o‘zichiga olgan bo‘lishi lozim.

Ekspert tekshiruvi tugaganidan so‘ng xulosa, tekshirish ob’ektlari va ishmateriallari ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi.

Sud eksperti xulosasi uch qismdan: kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi) qismlardan iborat bo‘ladi.

Ekspert xulosasining kirish qismi o‘tkazilayotgan ekspertiza tadqiqotlarining tashkiliy-boshqaruv jihatlarini aks ettiradi, ya’ni, bu qismda quyidagilar ko‘rsatiladi:

Tadqiqot o‘tkazilgan sana va joy, tartib raqami, uning huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirish va uning bilib turib noto‘g‘ri xulosa berganligi, ish materiallarini oshkor qilganligi, shuningdek uzrli sabablarsiz xulosa berishni rad etganligi yoki bundan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida tushuntirilganligi haqidagi tilxat olinganligi ko‘rsatiladi.

Xulosaning kirish qismida sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari, ekspertiza o‘tkazishni tayinlagan vakolatli organ (shaxs) yoxud advokat tadqiqotlarni o‘tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari), sud ekspertizasi hal etishi uchun qo‘yilgan masalalar, tadqiqot o‘tkazish uchun taqdim qilingan ish materiallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, sud ekspertizasini o‘tkazish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar ekspertizada hal qilish uchun bir nechta savol qo‘yilgan bo‘lsa, sud eksperti bu savollarning mazmuni va ma’nosi (semantik tarkibi) o‘zgartirmasdan guruhlarga taqsimlashi va

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

tadqiqotning eng maqbul tartibini ta’minlaydigan ketma-ketlikda bayon qilish huquqiga ega.

Agar qaror yoki ajrimda berilgan savol oldindan ma’lum bo‘lgan metodik tavsiyalarga muvofiq shakllantirilmagan bo‘lsa, lekin uning ma’nosi sud eksperti uchun tushunarli bo‘lsa, unda savol dastlabki shaklda bayon etilganidan so‘ng, sud eksperti ushbu savol uning maxsus bilimlariga muvofiq qanday tushunilishini izohlashi kerak.

Ushbu izohlarda sud eksperti:

Holatlarni huquqiy baholashni talab qiladigan(huquqiy tusdagi) savolga javob berishning iloji yo‘qligini ko‘rsatadigan holatlarni tushuntiradi;

Ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qarorda (ajrimda) ko‘rsatilgan savollardan so‘ng, ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) bilan kelishilgan holda va qonunchilik talabiga binoan,o‘z tashabbusi bilan,javoblari ish uchun muhim bo‘lgan holatlarni aniqlashga yordam beradigan tarzdagi savollarni shakllantiradi,

Fuqarolik ishi bo‘yicha ekspertiza o‘tkazishni tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar to‘lanmaganligi munosabati bilan to‘xtatib turish muddati. Chunki, “tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha xarajatlar to‘lanmaganligi ish materiallarini tadqiqotlar o‘tkazmasdan qaytarish uchun asos hisoblanadi” [3];

Berilgan sanasi ko‘rsatilgan holda, ekspertning tadqiqotlar o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha materiallar taqdim etish to‘g‘risidagi iltimosnomalari, bu bo‘yicha javob olinganligi va ko‘rib chiqilganligi natijalari;

Sud eksperti (ekspertlar) haqida ma’lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi, ma’lumoti, ilmiy darajasi va unvoni, lavozimi, ekspert mutaxassisligi, ekspertlik ish tajribasi.

Qo‘shimcha, qayta, komissiyaviy, kompleks ekspertizani o‘tkazishda ekspert xulosasining kirish qismida, yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda, o‘tkaziladigan ekspertiza turi alohida qayd etiladi, birlamchi ekspertiza to‘g‘risidagi ma’lumotlar xabar beriladi: ekspert xulosasining raqami va berilgan sanasi, ekspertning familiyasi, ismi va otasining ismi,ekspertiza muassasasining nomi, dastlabki ekspertizada aniqlangan haqiqiy holatlar va xulosalar, shuningdek yangi ekspertizani tayinlash uchun asoslar.

Sud eksperti xulosasining tadqiqot qismida sud eksperti oldiga qo‘yilgan har bir masala bo‘yicha tadqiqotlar jarayoni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo‘yicha ilmiy tushuntirish beriladi:

Xulosa berish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va ekspert tomonidan dastlabki ma’lumotlar sifatida qabul qilingan holatlar;

umumiy (tashqi) ko‘zdan kechirish: ekspertiza tadqiqotlari ob’ektlarining holatini va uning o‘ramini tavsiflash;

ekspertiza tadqiqotlari, eksperimentlar o‘tkazish va taqqoslash tadqiqotlar uchun namunalar olishning maqsadi, shartlari va natijalari;

tadqiqotlarda qo‘llanilgan tadqiqot uslublarining tavsifi, ularni qo‘llashning texnik shartlari, olingan natijalar;

tadqiqotlarni o‘tkazishda ekspert tomonidan foydalanilgan ma’lumot va me’yoriy materiallarga, maxsus adabiy manbalar, shuningdek turli ko‘rgazmali materialarga (illyustratsiyalar, ilovalar va ularga berilgan izohlar) havolalar;

agar ular muhim bo‘lsa, tergov harakatlarining natijalari (so‘roq qilish, ko‘zdan kechirish, eksperimentlar), xulosalarni asoslashda zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlar;

Tadqiqotning alohida bosqichlarini va tadqiqotlarning olingan barcha natijalarni ekspertiza

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

bo‘yicha tegishli xulosalarni shakllantirish uchun asos sifatida ekspert baholash.

Agar berilgan savollarning ayrimlariga javob berishning iloji bo‘lmasa, ekspert xulosasining tadqiqot qismida buning sabablari ko‘rsatiladi. “Quyidagi holatlarda sud eksperti tomonidan xulosa yoki mutaxassis fikri berishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risida asoslangan ma’lumotnoma tuziladi hamda uch ish kuni mobaynida ekspertizani tayinlagan vakolatli organga (shaxsga), advokatga, jismoniy yoki yuridik shaxsga yuboriladi:

Agar sud eksperti hal qilinishi kerak bo‘lgan savollarni o‘zining maxsus bilimlari asosida hal qilishi mumkin bo‘lmasa;

agar qo‘yilgan masala sud ekspertining maxsus bilimlari (vakolatlari) doirasidan chetga chiqsa yoki uni hal etish uchun maxsus bilimlar talab qilinmasa yoxud masala huquqiy tusga ega bo‘lsa;

taqdim etilgan tadqiqot ob’ektlari yoxud ish materiallari to‘liq yaroqsiz yoki xulosa berish uchun yetarli bo‘lmasa, ularni to‘ldirib bo‘lmasa;

tadqiqotlarni o‘tkazish va xulosalar berish uchun zarur shart-sharoitlar, tadqiqot uslubi va maxsus asbob-uskunalar mavjud bo‘lmasa, shu jumladan, sud eksperti hayoti va salomatligiga kasbiy tavakkalchili kchegarasidan ziyod xavf tug‘ilsa;

fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati hal qilinishi kerak bo‘lgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilinsa” [3].

Ekspert xulosasining tadqiqot qismi qo‘shimcha tushuntirish va talqin qilishni talab qilmaydigan atamalar va tushunchalar yordamida, ekspertiza sohasi bo‘yicha bilimga ega bo‘lmagan shaxslar uchun tushunarli bo‘lgan tilda bayon etiladi. Qo‘llaniladigan tadqiqot uslubiyoti sud eksperti tomonidan, uslubiyotni qo‘llanilishining to‘liqligini baholash mumkin bo‘lgan hamda agar xulosalarning to‘g‘riligini tekshirish kerak bo‘lsa, barcha tadqiqotlar takrorlanishi mumkin bo‘lgan tarzda tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari.

Ekspert xulosasining o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini baholash – sintezlash qismi barcha tadqiqotlarning umumiy natijasini aks ettiradi hamda quyidagi hollarda alohida bo‘limga ajratilib tavsiflanadi:

ko‘p sonli ob’ektlarning tadqiqotlari;

murakkab ob’ektlarni tadqiqotlari;

tadqiqot uslublarining majmualaridan foydalanish;

kompleks va komissiyaviy qayta ekspertizalarini o‘tkazish.

Sud eksperti xulosasining yakunlovchi (xulosa) qismi sud eksperti oldiga qo‘yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim. Agar xulosaning yakunlovchi (xulosa) qismini tadqiqot qismida bayon qilingan tadqiqot natijalarining mukammal tavsifisiz va qo‘yilgan masalaga to‘liq javobsiz shakllantirish mumkin bo‘lmasa, xulosaning tadqiqot qismiga havola qilishga ruxsat beriladi.

Sud eksperti xulosasida qoidabuzarlik sabablari va ularni sodir etishga imkon bergan sharoitlar, shuningdek, ularni bartaraf etishning tashkiliy-texnikaviy tavsiyalari ko‘rsatilishi mumkin.

Ekspert xulosasi protsessual hujjat sifatida ekspert yoki ekspertiza o‘tkazgan ekspertlar komissiyasi tomonidan imzolanadi. Imzolar muassasa muhri bilan tasdiqlanadi.

Ekspert xulosasi sudda e’lon qilinadi va audio-, video-materiallarni (kino, videoyozuvlar, fotosuratlar, chizmalar, jadvallar) namoyish etishning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ko‘rgazmali tarzda namoyish etilishi mumkin.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Ekspert xulosasi e’lon qilingandan so‘ng, sud va protsessning boshqa ishtirokchilari ekspertga xulosa tafsilotlarini aniqlashtirish va tushuntirishi uchun savollar berishlari mumkin. Shu bilan birga ob’ektlarning, aniqlik kiritish, tushuntirish, to‘ldirishni talab qiladigan tadqiqotlari natijalari va undan kelib chiqadigan xulosalar bo‘yicha ekspertni so‘roq qilish faqat ekspert xulosasi berilgandan keyin va o‘tkazilgan tadqiqotlar doirasida amalga oshiriladi. “Ekspertning xulosasi yetarli darajada aniq bo‘lmay, kamchiliklarini to‘ldirish uchun qo‘shimcha tekshirish o‘tkazishga zarurat bo‘lmasa yoki ekspert foydalangan usullarga aniqlik kiritish zarur bo‘lib qolsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspertni Jinoyat-protsessul kodeksning 98 – 108-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda so‘roq qilish huquqiga ega. Ekspert faqat o‘zi tomonidan berilgan xulosa va shaxsan o‘tkazgan ekspert tekshiruvlari yuzasidan so‘roq qilinishi mumkin. Ekspertni u xulosa berguniga qadar so‘roq qilish taqiqlanadi [4].

Jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishini yuritishda ekspert xulosasi isbotlash vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega, shuning uchun uni daliliy ma’lumot manbai sifatida baholash bilan bog‘liq bir qator qoidalarga e’tibor qaratish lozim.

V.I.Ivashkova boshqalarning fikricha “Ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish quyidagi ikki xilda usulda amalga oshirilishi mumkin:

– ekspert xulosalarini baholash;– ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilish” [5, S.104]. A.X.Raxmankulov va D.M.Mirazovlar esa “Ekspert xulosasi tergovchi tomonidan ish bo‘yicha to‘plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o‘tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligi nuqtai nazaridan baholanadi. Ekspertning xulosasi tergovchi uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas. Xulosaga qo‘shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim” [6, B.306] deb ta’kidlaydilar.

Rossiyalik olimlar Ye.R.Rossinskaya va Ye.I.Galyashinalar ekspert xulosasini quyidagi bosqichlarga ko‘ra baholashni taklif qilganlar:

“Ekspertizalarni tayinlashda amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilganlik holatini tekshirish; tadqiqot qilingan ashyoviy dalillar va namunalarning haqiqiyligi va yetarliligini tekshirish; ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotining ilmiy asoslanginligi va aniq bir holat bo‘yicha ushbu uslubiyotni qo‘llashning qonuniliyligini tekshirish; ekspert xulosasining to‘liqligi va har tomonlamaliligini tekshirish; ekspertiza tadqiqotlarining borishi va natijalarining mantiqiy izchilligini baholash; o‘tkazilgan ekspetiza tadqiqotlarining ko‘rilayotgan jinoiy yoki boshqa (ma’muriy, iqtisodiy yoki fuqarolik) ishiga mansubligini tekshirish; ekspertning yakuniy javoblarini (xulosa) ish bo‘yicha boshqa dalillarga mosligini tekshirish”[7, S.141-150].

Yuqoridagi fikrlarni ma’qullagan holda, fikrimizcha, *avvalo, ekspertning xulosasini baholashning quyidagi xususiyatini hisobga olish kerak:*

*e*kspertning xulosasi dalil sifatida isbotlash sub’ektlari (tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud) uchun muqarrar daliliy kuchga ega emas, ammo xulosaga rozi bo‘lmaslik ular tomonidan asoslantirilishi kerak. Xulosaga qo‘shilmaslik qarorda yoki ajrimda asoslab berilishi lozim. Agar jinoyat ishi yoki tergovga qadar tekshiruv materiallari bo‘yicha bir necha ekspertiza o‘tkazilgan va ekspertlar bir xil fikrga kelmagan bo‘lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud (keyingi o‘rinlarda - tergovchi)ba’zi ekspertlarning xulosalariga qo‘shilish va boshqa ekspertlarning xulosalariga qo‘shilmaslik to‘g‘risidagi o‘z fikrini asoslab berishi lozim.

Ekspert xulosasini dalil sifatida baholashning umumiy qoidalariga qaramay, u yana bir

xususiyatga ega, chunki jarayonni olib boruvchi organ ilmiy asosga ega bo‘lgan tadqiqot natijalarini baholashi kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatda, tushuntirishni talab qiladigan eng qiyin holatlarda, mutaxassis yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri sud ekspertining yordamiga murojaat qilish, uni so‘roq qilish mumkin.

Ish yuritishning tergov yoki sudda ko‘rib chiqish jarayonida ekspert xulosasini baholash – ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi va ekspertiza o‘tkazish uchun belgilangan barcha protsessual qoidalarga rioya etilganligini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ekspert xulosasining dadil sifatida ko‘rilayotgan ish bilan bog‘liqligi masalasini hal qilish amalda alohida qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydi, chunki ushbu hujjatning ishda paydo bo‘lishiga protsessga maxsus ilmiy bilimlarni jalb qilish zaruratidan kelib chiqadigan muayyan bir protsessual tartib sabab bo‘ladi.

Ekspert xulosasining maqbulligi va ishda undan foydalanish mumkinligini baholash sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishda qonun talablariga rioya etilganligini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Bu jarayon quyidagi to‘g‘risidagi savollarni hal qilishni o‘z ichiga oladi:

Sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishning belgilangan qoidalar nuqtai nazaridan qonuniyligi; sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazishda protsess ishtirokchilarining huquqlariga rioya qilish; sud muhokamasida ekspertga savollar berish tartibiga rioya qilish; ekspertning vakolatiga muvofiqligi va uning chegaralaridan chetga chiqish holatlarining mavjud emasligi. “Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar va uning bergan xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari chiqishi mumkin emas” [4];ekspert tomonidan qo‘llaniladigan ekspertiza tadqiqot usullari, uslublari va texnik vositalarining qonun talablariga muvofiqligi; ekspert xulosasi tuzilishining to‘g‘riligi; ekspert xulosasining barcha rekvizitlari va ekspertizaga oid hujjatlar va materiallarning mavjudligi; sud ekspertini rad etish uchun asos yo‘qligi.

Ekspertning xulosalarini baholashda tergovchi va sud ekspertning ixtiyoriga qanday materiallar taqdim qilinganligiga, ular ishonchli va ishga aloqador ekanligiga, ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar ekspert tomonidan qanchalik qonuniy ravishda olinganligiga, taqdim etilgan va ekspertiza o‘tkazishda foydalanilgan tadqiqot materialining, ya’ni tadqiqot ob’ektlarining yetarliligiga e’tibor berishlari kerak. Chunki, tadqiqot ob’ektlarning yetarli emasligi ekspert xatolarining kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, dalil bo‘lishdan oldin ekspertning xulosasi, uni baholovchi shaxsning ichki ishonchi prizmasidan o‘tishi kerak. Qonun chiqaruvchi qonunni buzgan holda olingan dalillar qonuniy kuchga ega emas deb tan olinishini va ayblovning asosi bo‘lishi mumkin emasligini, shuningdek, isbotlash predmetiga kiritilgan har qanday holatni isbotlashda ishlatilmasligini belgilaydi. “Agar faktik ma’lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo‘li bilan yoxud ushbu Kodeks talablari buzilgan holda olingan bo‘lsa, shu jumladan:

1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayri insoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llagan holda; 2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo‘li bilan; 3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda; 4) jinoyat ishi bo‘yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida; 5) noma’lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan; 6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi,

sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan olingan bo‘lsa, ular **dalil sifatida maqbul emas** deb topiladi.

Faktik ma’lumotlardan dalil sifatida foydalanishning maqbul emasligi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning o‘z tashabbusi bilan yoki ishtirokchilarning iltimosnomasi bo‘yicha aniqlanadi. Tergovchiga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya dalillarning maqbul emasligi to‘g‘risidagi masalani hal qilayotganida har bir holatda yo‘l qo‘yilgan buzilish nimada aniq ifodalanganligini aniqlab olishi va asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart. Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan ushbu Kodeks normalari buzilgan holda olingan ko‘rsatuvlardan, ekspert xulosasidan, ashyoviy dalillardan, audio-, video yozuvlardan va boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish taqiqlanadi” [4]. Ushbu qoida ekspertning xulosasiga ham to‘liq tegishli.

Qonun talablariga qat’iy rioya qilinishi talabi ekspert xulosasini baholashda tergovchining ichki ishonchini shakllantirishning xususiyatlaridan biridir. Uni baholashning huquqiy sharti deb atash mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili.

Ekspert xulosasini baholashning protsessual-tashkiliy, faktik, uslubiy, mantiqiy, grammatik va ko‘rgazmali bo‘lishi kabi shartlari (tomonlari) o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib. Ular tergovchi va sudga ekspert oldida turgan vazifalarning mohiyatini, ularni hal qilish uchun qo‘llaniladigan maxsus bilimlarning xususiyatlarini, maxsus bilimlarni amalga oshirish usullari hamda ekspert xulosasining ishonchliligi, xolisonaligi va ilmiy asoslanganligi haqidagi savolga javob berishga imkon beradi.

Masalan, sud ekspertizasini o‘tkazishning protsessual-tashkiliy shartlariga xulosada aks ettirilgan va baholanishi kerak bo‘lgan quyidagi elementlar kiradi:

– ekspertizani o‘tkazish vaqti. Ushbu elementni baholash ekspertiza o‘tkazish muddati va bu jarayonda qoidabuzarliklarning yo‘qligi masalasini tushunish uchun muhimdir;

– ekspertizani o‘tkazish joyi. Qonunchilikda sud ekspertizasini ekspertiza muassasalarida ham, muassasadan tashqarida ham o‘tkazish imkoniyati ko‘zda tutilgan. “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ekspertiza tayinlash to‘g‘risida o‘zi chiqargan qarorni yoki ajrimni, tekshirish ob’ektlarini, zarur hollarda esa jinoyat ishini ham davlat sud-ekspertiza muassasasining yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilotning rahbariga yuboradi. Agar qaror yoki ajrimda ekspert ko‘rsatilmagan bo‘lsa, tashkilotning rahbari mazkur tashkilot xodimlaridan qaysi biri ekspertiza o‘tkazishi to‘g‘risida farmoyish berishi kerak. Bu haqda u ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga) xabar beradi” [4].

“Ekspertiza ekspertiza muassasasidan tashqarida o‘tkaziladigan bo‘lsa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risida qaror yoki ajrim chiqargandan keyin ekspertiza o‘tkazish topshirilayotgan shaxsni chaqirtiradi, uning shaxsi va malakasini, gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga, jabrlanuvchiga bo‘lgan munosabatini va uni rad etishga asoslar bor-yo‘qligini aniqlaydi” [4].Ushbu holat ekspert xulosasini baholashda hisobga olinishi kerak, chunki qonun sud ekspertizasi ekspertiza muassasasidan tashqarida o‘tkazilgan taqdirda, sud eksperti tomonidan ekspertiza tayinlash to‘g‘risida qarorni qabul qilib olishda ekspertning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi bilan tanishishni majburiy ravishda amalga oshirishni talab qiladi;

– sud eksperti ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma’lumoti, mutaxassisligi,

mutaxassisligi bo‘yicha ish staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi). Ushbu element bilan tanishish, birinchi navbatda, sud ekspertining malakasini, ya’ni uning maxsus ilmiy bilimlari mavjudligini baholashni o‘zichiga oladi.

Bu kabi savol ekspertiza tayinlangandayoq vujudga keladi bo‘ladi, ammo bu tergovchi va sudni ekspert xulosasini olgandan keyin uning tahliliga qaytish majburiyatidan ozod qilmaydi. Ekspertning ilmiy va maxsus malaka va vakolatlarini (kompetensiyasi) baholash uning shaxsiy ma’lumotlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki ekspertiza tomonidan aniqlangan holatlarni, qo‘llanilgan tadqiqot usullarining asosliligini va uning professionalligi darajasini baholashga imkon beradigan natijalarni chuqur o‘rganishni o‘z ichiga oladi;

– ekspertiza o‘tkazish asoslari. Ushbu element tergovchi va sud tomonidan ekspertiza o‘tkazish uchun asoslar mavjudligini baholashni nazarda tutadi, ular shartli ravishda huquqiy va faktik asoslarga bo‘linadi. Protsessual asoslar – bu ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim) va advokat so‘rovi hisoblanadi. “Ekspertiza tashkilotida tadqiqotlar tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya (sud)ning qarori (ajrimi) asosida o‘tkaziladi. Advokat so‘roviga ko‘ra tadqiqotlar iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlatsud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan amalga oshiriladi” [4].Ushbu hujjatlarning mazmuni– ekspertizani tayinlagan shaxsning ko‘rsatmasidan tortib, uni hal qilish uchun berilgan savollar va taqdim etilgan materiallargacha – ekspert xulosasida aks ettirilishi kerak. Ekspertizani tayinlashning haqiqiy asosi bo‘lib, tergov va sud oldida yuzaga keladigan, ekspert tomonidan maxsus ilmiy bilimlarni qo‘llashni talab qiladigan masalalarni hal qilish zarurati hisoblanadi.

– ekspert imzosi bilan tasdiqlangan uning huquq va majburiyatlarini tushuntirish; bila turib yolg‘on xulosa berish uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilganligi to‘g‘risida ekspert imzosi bilan tasdiqlangan belgi; shuningdek, ekspertning imzosi dalil sifatida ekspert xulosasining majburiy tarkibiy qismi bo‘lib, baholangan hujjatda imzoning mavjudligi tergovchi va sud tomonidan majburiy tekshirilishi kerak.

– sud ekspertiga hal qilish uchun berilgan savollar. Ushbu tarkibiy qism bilan tanishish tergovchi va sudga baholash jarayonida ekspert o‘z xulosasida berilgan barcha savollarni ko‘rsatganmi, ularni to‘g‘ri tushunganmi, ularga javoblar berilganmi, sud eksperti bu savollarga javob berishda o‘z vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqan chiqmaganligini, ekspertning xulosasida ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari savollarga javob berilgan berilmaganligini aniqlashga imkon beradi

– ekspertizani o‘tkazishda kim ishtirok etgan va qanday tushuntirishlar bergan. Ushbu shartni baholash protsess ishtirokchisi bo‘lgan shaxsni ekspertizaga taklif qilishning asosliligi, uning ekspertiza tadqiqotida ishtirok etishining xususiyati, ushbu shaxs tomonidan berilgan ko‘rsatuvlarning mohiyati va ularni ekspert tomonidan talqin qilish masalasini hal qilish bilan bog‘liq.

Shunday qilib, tergovchi tomonidan ekspert xulosasining protsessual-tashkiliy tarkibiy qismini baholash, amaliyotda sud-ekspertlik faoliyatining qonuniyligi prinsipining bajarilishini tekshirishni belgilaydigan muhim element hisoblanadi.

Ekspert xulosasini baholashda t**adqiqotlarning xolisligi, har tomonlamaligi va to‘liqligi tamoyiliga** rioya etilishini baholash ham muhim ahamiyatga ega.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Tergovchi va sud tomonidan ushbu baholash ekspertiza tadqiqotlarining haqiqiy va uslubiy tomonlarini tahlil qilishda berilishi mumkin hamda ular quyidagi savollarga javoblarni o‘z ichiga oladi:

– sud eksperti tomonidan qanday vazifalarni hal qilingan;
– ekspert jinoyat ishining qanday materiallaridan foydalangan;
– qanday ob’ektlar tadqiq qilingan;
– qanday tadqiqotlar aynan qanday bilimlar asosida o‘tkazilgan;
– berilgan savollarga javoblar asoslangan mi;
– berilgan savollarning barchasiga yoki ba’zilariga javob bera olmaslik uchun asoslar mavjudmi;
– qo‘llanilgan tadqiqot usullari asoslanganmi va ularning ishonchliligi darajasi qanday.

Chunki, sud eksperti tadqiqotlarni xolisona, qat’iy ilmiy va amaliy asosda, tegishli ixtisoslik doirasida, har tomonlama va to‘liq hajmda o‘tkazadi. Sud ekspertining xulosasi (xulosa) qilingan fikrlarning asosliligi va ishonchliligini umume’tirof etilgan ilmiy va amaliy ma’lumotlar bazasiga muvofiq tadqiqot o‘tkazish imkoniyatini beradigan qoidalarga asoslanishi lozim.

Yuqoridagi har bir kichik vazifaning yechimi ekspertiza tadqiqotlarining bosqichlarini aks ettiradi va ekspert xulosasining tuzilishida – kirish, tadqiqot va yakuniy qismlarda – belgilangan ketma-ketlikda qayd etilishi kerak. Masalan, tergovchi va sud ekspert xulosasining kirish qismida ekspertizaga taqdim etilgan materiallarning to‘liqligi va sifatliligiga e’tibor berishlari kerak. Ekspertiza taqdim qilingan dastlabki materiallarining ***sifatliligi*** deganda– bunday materiallarning, ob’ektlarni olish, ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olish qoidalari to‘g‘risidagi qonunchlik normalariga rioya qilish bilan ta’minlanadigan haqiqiyligi tushuniladi.

Ekspert xulosasining tadqiqot qismida ekspert tadqiqotining borishi va oraliq natijalari batafsil bayon etiladi. Tergovchi va sudning vazifasi ekspert tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotning to‘liqligini tahlil qilish asosida, ekspert bergan xulosalarning ishonchliligi va asosliligini tekshirishdan iborat.

Ekspertiza tadqiqotlarining to‘liqligi bevosita tadqiqot uchun taqdim qilingan barcha materialni tadqiqotlari qamroviga bog‘liq va ekspertga berilgan savollarga javoblarning to‘liqligini anglatadi. Ekspertiza tadqiqotlarining to‘liqligi turlicha, bir-birini to‘ldiruvchi tadqiqot usullaridan foydalanishga ham bog‘liq bo‘ladi.

Ekspert tomonidan qo‘llaniladigan uslublarning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini tekshirish – tergovchi va sud tomonidan o‘tkaziladigan baholashning uslubiy jihatlarining muhim tarkibiy qismidir. Ekspertiza uslublari ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan, rasmiy ravishda sinovdan o‘tgan va tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Sud eksperti tadqiqotlarni to‘liq o‘tkazishi va to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun yetarli bo‘lgan holatlarni aniqlashi mumkin, ammo ular ekspert tomonidan noto‘g‘ri tushuntirilishi mumkin va shuning uchun uning xulosasi, ishonarli ko‘rinishiga qaramay, asossiz bo‘ladi.

E*kspert xulosasining tadqiqot qismining faktik va uslubiy tomonini tekshirishda tergovchi va sud quyidagilarni batafsil bilib olishlari kerak:*

– sud eksperti ob’ektlarning qanday belgilarini qaysi usullarni qo‘llash asosida aniqladi va;
– ularning tavsifi xulosa bayon etilganiga mos keladimi;
– ekspertiza tadqiqotlari uslubiyoti to‘g‘ri tanlangan mi;
– tanlangan tadqiqot uslubiyoti ekspertning xulosasida to‘liq tavsiflangami?

Sud ekspertlari qo‘llanilgan tadqiqot usullari va uslublari ta’riflangan ilmiy va uslubiy

adabiyotlar ro‘yxatini keltirganligiga e’tibor qaratish lozim;

– qo‘llaniladigan uslubiyot ekspertiza vazifalarini bajarilishini ta’minlaydimi;

– qo‘llaniladigan texnik usul va vositalar tavsiflanganmi va agar shunday bo‘lsa, ularni ob’ektiv baholash uchun qanchalik to‘liq va yetarli darajada tavsiflangan;

– o‘tkazilgan tadqiqotlar maxsus bilimlarning rivojlanish darajasiga, ushbu turdagi ekspertiza imkoniyatlariga mos keladimi.

Tadqiqot natijalarini baholash, xulosalarni (yakunlovchi qism) shakllantirish va ularni asoslash ekspert xulosasining yakuniy qismi bilan tanishganda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu baholash tergovchi tomonidan, ekspertning u yoki bu xulosaga kelishiga asos bo‘lgan aniq ma’lumotlarni tahlil qilish asosida beriladi.

Xulosalarning (yakunlovchi qism) to‘g‘riligini to‘g‘ri baholash uchun tadqiqotlarning alohida bosqichlari natijalariga ko‘ra olinadigan oraliq xulosalar qanchalik ishonchli shakllanganligini, ekspertning asosiy xulosalari ushbu oraliq xulosalarga, shuningdekbutuntadqiqotyo‘nalishlarigamoskelishinitekshirishkerak.

Buning uchun, nafaqat ekspertiza tadqiqotlarining jarayonini baholash, balki ekspertning xulosasiga ilova qilingan ko‘rgazmali materialni tahlil qilish ham yordam beradi.

Ekspert xulosasining ko‘rgazmali ilovalarini– tadqiqotlar va uning natijalarini tasvirlovchi fotojadvallar, diagrammalar, chizmalar va shu kabi ilovalar – baholash tergovchi (sud) tomonidan ekspert xulosasiga ilovalarni tekshirishni talab qiladi, ular sirasiga tadqiqotdan keyin qolgan ob’ektlar, shu jumladan namunalar, shuningdek foto-jadvallar, chizmalar, sxemalar va ekspert xulosalarini tasdiqlovchi boshqa materiallar kiradi.

Xulosalar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ekspert xulosasining qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan tuzilishi tergovchiga, dalil sifatidagi yakuniy hujjatda aks ettirilgan, ekspertiza tadqiqotlarining kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi) qismlarini ketma-ketlikda va tizimli ravishda tahlil qilish va baholashga imkon beradi.

Ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilishda esa quyidagi tadbirlar orqali amalga oshirilishi lozim:

–ekspertiza o‘tkazishning muddati va sifatini nazorat qilish;

– sud ekspertizasi muassasalari xodimlariga boshqa vazirliklar va organlarning ekspertiza muassasalarida faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassislari tomonidan maslahatlar o‘tkazilishini tashkil qilish;

– ichki ishlar organlari hamda boshqa organlarning yetakchi muxatassislari, amaliy va nazariy xodimlari ishtirokida, ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar va yig‘ilishlar o‘tkazish;

– sud ekspertiza muassasalari xodimlarining xulosalarini muntazam ravishda, sohaning yetakchi mutaxassislari tomonidan taqrizdan o‘tkazilishini tashki lqilish [8].

Ekspert xulosasini baholashda qiyinchiliklar yuzaga kelgan hollarda, yuqorida aytib o‘tilganidek, sud eksperti tadqiqot natijalari bo‘yicha tushuntirish berish uchun so‘roq qilishga chaqirilishi mumkin. Bu holda ham qonun chiqaruvchi mutaxassisni jalb qilish imkoniyatini istisno qilmaydi.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son Farmoni. / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 y., 06/21/6256/0636-son; 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son.

2. Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. Yu.f.n., prof. v.b. D.Bazarova, yu.f.d. dos. I.R.Astanov. – Toshkent: TDYuU, 2019. – 618 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son qarori / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2023 y., 09/23/73/0098-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2022.186-m. / O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2017 y., 1-son, 1-modda, 13-son, 194-modda, 24-son, 487-modda, 36-son, 943-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021 y., 03/21/673/0112-son; 18.02.2021 y., 03/21/675/0126-son.

5. В.И.Ивашкои др. Деятельность экспертно-криминалистческих подразделений органов внутренних дел по применению экспертно-криминалистических методов и средства в раскрытии и расследовании преступлений. – М., 1996. – 107 с.

6. Raxmankulov A.X. MirazovD.M. Dastlabki tergov: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 455-b.

7. Россинская Е.Р., Галяшина Е.И. Настольная книга судьи: судебная экспертиза. – М., 2010. – 464 с.

8. Н.К.Рисунков. Криминалистика: проблеми и тенденция развития. – М., 2006. – С.446.

WORDLY
KNOWLEDGE